

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI JORIY QILISH VA BIZNES JARAYONLARIGA ZAMONAVIY IJTIMOY TARMOQLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Jo‘raqulov Ozodbek Jahongir o‘g‘li, Abdulhamidov Abdullajon Ortiq o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Karshiboyev Shuxrat Utkirovich
abdulabdullajon3232.32@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ishda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, biznes faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning strategik ahamiyati yoritilgan. Mamlakatda elektron hukumat, raqamli xizmatlar, elektron to‘lovlar, onlayn savdo va masofaviy boshqaruv tizimlarining rivojlanishi natijasida iqtisodiy samaradorlikning oshishi, tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi hamda global raqobatbardoshlikning kuchayishi tahlil qilinadi. Shuningdek, biznes jarayonlarida ijtimoiy tarmoqlarning marketing, mijozlar bilan muloqot, brend boshqaruvi va iste’molchilar xulqini o‘rganishdagi roli ko‘rib chiqiladi. Raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish istiqbollari sifatida sun’iy intellekt, big data, bulutli texnologiyalar, elektron tijoratni kengaytirish hamda biznes subyektlarining raqamli savodxonligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘z: raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, elektron hukumat, elektron tijorat, AKT, ijtimoiy tarmoqlar, internet marketing, biznes jarayonlari, sun’iy intellekt, big data, raqamli xizmatlar, innovatsion texnologiyalar, brend boshqaruvi, onlayn savdo, raqamli savodxonlik.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida kompaniyalar o‘z biznes faoliyatlarini nafaqat ichki bozor doirasida, balki xalqaro miqyosda ham muvaffaqiyatli rivojlantirishga intilmoqda. Ayniqsa, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish, elektron tijorat, zamonaviy marketing texnologiyalaridan foydalanish hamda eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan davlat siyosati ushbu maqolaning dolzarbligini yanada oshiradi.

Kompaniyaning shakli, tashkiliy-huquqiy asoslari va ularni to‘g‘ri tashkil qilish bozor iqtisodiyoti sharoitida muvaffaqiyatli tadbirkorlik yuritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda elektron tijorat, raqamli xizmatlar, turizm va qishloq xo‘jaligi sohalarida raqamlashtirish jarayonining bosqichma-bosqich kengayib borayotgani, yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda.

Kompaniya biznes faoliyatini raqamlashtirish bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida kompaniyalar o‘z faoliyatini yanada samarali, tejamkor va zamonaviy tarzda tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun esa, avvalo kompaniya tashkil etishning huquqiy va tashkiliy asoslarini bilish muhimdir. O‘zbekiston Respublikasida

kompaniya ochish jarayoni ancha soddalashtirilgan bo‘lib, “fo.birdarcha.uz” portali orqali bizneslariga o‘zgartirishlar kiritishlari mumkin⁶⁹. Bu kompaniyaning faoliyat yuritishi uchun muhim bo‘lgan soliq tizimi, moliyaviy hisobot va boshqa ko‘rsatkichlarni yuritish imkonini yaratadi.

Shuningdek, bugungi raqamli davrda elektron biznes (e-biznes) va elektron tijorat (e-commerce) tushunchalari kompaniya faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda. Internet orqali mahsulot va xizmatlar savdosini amalga oshirish, mijozlar bilan muloqot qilish, elektron to‘lov tizimlaridan foydalanish kabi imkoniyatlar elektron tijoratni jahon miqyosida keng yoyilishiga sabab bo‘lmoqda. O‘zbekistonda bu sohalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Prezidentning “Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁷⁰gi PQ–3724-sonli qarori qabul qilingan. Ushbu hujjat elektron savdo infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan aniq vazifalarni belgilab bergan.

Kompaniya biznesining shakllari turlicha bo‘lib, ularning har biri raqamli texnologiyalarni joriy qilishda o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi. Korxonaning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uning innovatsion g‘oyalarni qay darajada tez va samarali amalga oshirishiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, kompaniya faoliyatini raqamlashtirish – nafaqat texnologik modernizatsiya, balki strategik boshqaruvning yangi bosqichi hisoblanadi.

Shu bilan birga, raqamli marketing vositalaridan (Instagram, Facebook, YouTube, Telegram, Shopify, Fiverr va boshqalar) to‘g‘ri foydalanish kompaniyaning mahsulot yoki xizmatlarini keng auditoriyaga yetkazish imkonini beradi. Ushbu vositalar yordamida kompaniyalar o‘z brendini shakllantirib, mijozlar ishonchini oshirishi mumkin.

Shuningdek, marketing sohasining raqamli vositalar asosida rivojlanishi – xususan Instagram, YouTube, Facebook, Shopify, Fiverr va Telegram kabi platformalardan samarali foydalanish – kompaniyalarga yangi mijozlarni jalb qilish, brend qiymatini oshirish va savdo hajmini kengaytirishda katta rol o‘ynaydi. Ayniqsa, elektron xizmat ko‘rsatish orqali iqtisodiy faol aholining bandligini ta‘minlash va raqamli mehnat bozorini rivojlantirish hozirgi davrning ustuvor vazifalaridandir.

Kompaniya biznesini tashkil qilish asoslari, O‘zbekistonda raqamlashtirish istiqbollari hamda marketingni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish masalalari chuqur tahlil qilinadi. Ishning nazariy va amaliy jihatlari asosida raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi va aholi bandligiga ta‘siri ham ko‘rib chiqiladi.

Kompaniyaning ichki va tashqi jarayonlarini raqamlashtirish orqali ishlab chiqarish, moliya, logistika va mijozlarga xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda samaradorlik ortadi. Masalan, Asakadagi avtomobil zavodida logistik va xarid tizimlarini raqamlashtirish natijasida 41 million AQSh dollari tejalgan⁷¹. Bu

⁶⁹ <https://daryo.uz/2023/08/22/ozbekistonda-byurokratiyani-kamaytirish-evaziga-davlatning-biznesni-tartibga-solishga-qaratilgan-500-ta-funksiyasi-bekor-qilindi>

⁷⁰ “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali, 714 sahifa, 30-oktyabr, 2023-yil. Muharrir: Qurbonov Sherzod Ismatillayevich.

⁷¹ <https://president.uz/oz/lists/view/3848> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 22-sentabr kuni tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi ma‘lumotlari.

raqamlar raqamli texnologiyalarning amaliy foydasini yaqqol ko‘rsatadi. Tashqi jarayonlarda esa, mijozlar bilan aloqani mustahkamlash va mahsulotlar marketingini raqamli platformalar orqali amalga oshirish dolzarbdir.

Marketing strategiyasida Instagram, YouTube, Facebook, Shopify, Fiverr, Telegram va Envato kabi platformalar muhim o‘rin tutadi. Bu orqali kompaniyalar keng auditoriyaga tezda chiqish, reklama qilish, mijoz fikrini o‘rganish va xizmat sifatini oshirish imkoniga ega bo‘ladi. Ayniqsa yoshlar va zamonaviy texnologiyalarga moslashgan aholining bu platformalardan faol foydalanishi biznes uchun yangi imkoniyatlarni ochadi⁷².

O‘zbekistonda elektron xizmat ko‘rsatish kompaniyalarini tashkil qilish orqali nafaqat zamonaviy ish o‘rinlari yaratilmoqda, balki iqtisodiy faol aholi soni ham oshmoqda. So‘nggi yillarda 500 dan ortiq IT kompaniyalar tashkil etilib, sohaga 475 million AQSh dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilingan⁷³. Bu holat “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilmoqda. Prezidentning O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida “PQ–3832”⁷⁴ va “PF–6079-sonli”⁷⁵ hujjatlari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda yo‘l xaritasi bo‘lib xizmat qilmoqda⁷⁶.

Bugungi globallashtirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida kompaniyalar uchun raqamlashtirish nafaqat ichki jarayonlarni optimallashtirish, balki bir nechta kompaniyalar o‘rtasida qo‘shma loyihalar asosida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish imkonini bermoqda. Ayniqsa, klaster tarzida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar uchun raqamlashtirish texnologiyalari – ERP tizimlari, birgalikdagi CRM platformalari, blokcheyn asosidagi yetkazib berish zanjirlari – umumiy boshqaruv, xarajatlarni nazorat qilish va tezkor ma’lumot almashishni ta’minlaydi.

Masalan, to‘qimachilik yoki avtomobilsozlik sohalarida faoliyat yuritayotgan yetkazib beruvchi, ishlab chiqaruvchi va distribyutor kompaniyalar o‘z jarayonlarini yagona raqamli platforma orqali uyg‘unlashtirgan holda ishlasa, mahsulot ishlab chiqarish zanjiri ancha soddalashadi va ishonchli bo‘ladi. Bu esa nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki eksport salohiyatini ham kengaytiradi. Natijada, kompaniyalar o‘zaro axborot almashinuvida aniqlik va tezlikka erishadi. Bu esa bozorga moslashuvchanlikni kuchaytirib, raqobatbardoshlikni oshiradi.

Xulosa sifatida, umuman olganda, yetkazib beruvchi, ishlab chiqaruvchi va distribyutorlar o‘rtasida yagona raqamli platforma orqali ishlash tizimi joriy etilishi tarmoqda uzluksiz hamkorlikni shakllantiradi. Jarayonlarning raqamlashtirilishi mahsulot sifati ustidan nazoratni kuchaytiradi, logistika xarajatlarini kamaytiradi hamda ishlab chiqarishdagi real vaqt rejimidagi monitoring imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa kompaniyalarga nafaqat ichki bozor talabiga tez javob berish,

⁷² <https://www.statista.com/>

⁷³ <https://president.uz/oz/lists/view/6938>

⁷⁴ <https://lex.uz/docs/> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi PF-121-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.04.2022-y., 06/22/121/0354-son).

⁷⁵ <https://lex.uz/docs/> 3-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi PF-194-sonli Farmoniga asosan xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 23.08.2022-y., 06/22/194/0766-son

⁷⁶ https://digital.gov.uz/oz/pages/decrees_and_decisions_of_the_president

balki xalqaro bozorlarga chiqish jarayonida ham barqaror va raqobatbardosh bo‘lish imkonini yaratadi. Raqamli integratsiya asosidagi bunday yondashuv kelgusida O‘zbekiston iqtisodiyotining modernizatsiyasi, eksport hajmining ortishi va global qiymat zanjirlarida ishtirok etish darajasining oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://daryo.uz/2023/08/22/ozbekistonda-byurokratiyani-kamaytirish-evaziga-davlatning-biznesni-tartibga-solishga-qaratilgan-500-ta-funksiyasi-bekor-qilindi>
2. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali, 714 sahifa, 30-oktyabr, 2023-yil. Muharrir: Qurbonov Sherzod Ismatillayevich.
3. <https://president.uz/oz/lists/view/3848> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 22-sentabr kuni tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi ma‘lumotlari.
4. <https://www.statista.com/>
5. <https://president.uz/oz/lists/view/6938>
6. <https://lex.uz/docs/> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi PF-121-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 28.04.2022-y., 06/22/121/0354-son).
7. <https://lex.uz/docs/> 3-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi PF-194-sonli Farmoniga asosan xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.08.2022-y., 06/22/194/0766-son
8. https://digital.gov.uz/oz/pages/decrees_and_decisions_of_the_president

TYPES OF CONCEPTS IN COGNITIVE LINGUISTICS

Fayzulloyeva Zilola

Teacher, Samarkand state institute of foreign languages

Email: fajzullaevazilola566@gmail.com

Abstract: This article examines the typology of concepts within the framework of cognitive linguistics. Concepts are understood as fundamental mental representations that structure human experience and underlie linguistic meaning. The study identifies and describes the major types of concepts—basic, concrete, abstract, embodied, metaphorical, metonymic, and culturally specific—highlighting their cognitive and linguistic characteristics.

Key words: *concept*, cognitive models, perception, categorization, metaphorical mapping, superordinate concepts, basic-level concepts, concrete concepts, abstract concept, conceptual metaphors.